

2. Qur'onov, Dilmurod. Adabiy jarayon va an'ana. Toshkent, 2010. — B.12.
3. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, 1972. — B.126.
4. Mannopov. I.S. Yassaviylik adabiyotining genezisi, takomillashuvi va badiiyati. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Farg'ona, 2024. — B. 231.
5. Соатова Н. Анъанавийлик ва ворислик. Монография. Тошкент. Mumtoz so'z, 2019. — Б.68.
6. Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърятти мисолида): Филол. фан. докт.(DSc)... дисс. — Фарғона, 2021. — Б. 46.
7. Ҳамроева Д.Ю. Боборахим Машраб ғазаллари поэтикаси (маъно, образ, истилоҳ мисолида). Филол. фан. номз. дисс. авт. - т., 2004. — Б.8.
8. Николюкин А.Н. Литературная энциклопедия. Терминов и понятий. Москва. НПК"Интелвак". 2001, стр. 1089.
9. Baldick Chris. The Concise Oxford dictionary of Literary Terms. Oxford University Press.2001, p. 260.
10. Николюкин А.Н. Литературная энциклопедия. Терминов и понятий. Москва. НПК"Интелвак". 2001, стр. 464.

---

**Tabassum Xolmatova Baxtiyor qizi**, Farg'ona davlat universiteti, magistratura bosqichi, 1-kurs magistranti  
ORCID -0009-0009-8370-7223. [Tabassumxolmatova60@gmail.com](mailto:Tabassumxolmatova60@gmail.com)



---

## BOBUR LIRIKASIDA FASLIY LAVHALAR VA ULARNING BADIY TALQINI

<https://zenodo.org/records/19840630>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida fasllar tasvirining poetik xususiyatlari, ularning ramziy-majoziy yuklamasi, inson ruhiyati bilan uyg'unligi hamda badiiy qiymati tahlil etiladi. Bobur she'riyatida bahor, yoz, kuz va qish obrazlari shunchaki tabiat manzarasi emas, balki shoirning ruhiy kechinmalari, vatan sog'inchi, muhabbat iztiroblari, hayot falsafasi va davr ruhiyatining badiiy ifodasiga aylanganligi ilmiy asosda yoritiladi. Fasllar tasviri orqali Boburning tabiat, inson va zamon uyg'unligini qay tarzda tasvirlagani ochib beriladi.

**Kalit so'zlar, iboralar:** Lirika, fasl obrazi, tabiat tasviri, ramziylik, poetika, ruhiy kechinma, vatan sog'inchi, badiiy qiymat.

## SEASONAL SCENES IN BABUR'S LYRICS AND THEIR ARTISTIC INTERPRETATION

**Annotation.** In this scientific article, the poetic features of the depiction of seasons in the lyrics of Zahiriddin Muhammad Babur, their symbolic and spiritual meaning, harmony with human emotions, and artistic value are analyzed. In Babur's poetry, the images of spring, summer, autumn, and winter are not merely descriptions of nature, but become artistic expressions of the poet's inner experiences, longing for the homeland, the sufferings of love, the philosophy of life, and the spirit of the era. Through the depiction of the seasons, it is revealed how Babur describes the harmony of nature, human beings, and time.

**Keywords and expressions:** lyric poetry, image of seasons, nature description, symbolism, poetics, emotional experience, longing for homeland, artistic value.

## СЕЗОННЫЕ СЦЕНЫ В СТИХАХ БАБУРА И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ.

**Аннотация.** В данной научной статье анализируются поэтические особенности изображения времён года в лирике Захириддина Мухаммада Бабура, их символическо-духовная нагрузка, гармония с внутренним миром человека и художественная ценность. В поэзии Бабура образы весны, лета, осени и зимы выступают не просто описанием природы, а становятся художественным выражением душевных переживаний поэта, тоски по родине, страданий любви, философии жизни и духа эпохи. Через изображение времён года раскрывается, как Бабур передаёт гармонию природы, человека и времени.

**Ключевые слова:** лирика, образ времени года, изображение природы, символичность, поэтика, душевные переживания, тоска по родине, художественная ценность.

### Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotida nafaqat yirik davlat arbobi, balki yuksak badiiy tafakkur sohibi sifatida alohida o'rin egallaydi. Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiyatiga, ilmiy- ijodiy merosiga qiziqish o'tgan asrda jadidlar: Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon ijodida ham kuzatiladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida ilk adabiy- nazariy qarashlarni boshlab bergan Abdurauf Fitrat boburshunoslikda ham ilk tadqiqotlarni boshlab berdi. Jahon adabiyotshunosligida Bobur hayoti, ijodini U. Erskin, P. Sharma, A.Stil, A. Beverij kabi dunyo olimlari o'z ilmiy ishlarida tadqiq etishgan. Bu ishlarda ko'proq Bobur biografiyasi va "Boburnoma" asari o'rganilgan. Bundan tashqari dunyo olimlaridan Leyden Jon, Ilminskiy Nikolay Ivanovich, Ser Edvard Denison Ross, Samoylovich Aleksandr Nikolayevich, Blaova Galina Fedorovna, Tekston M. Viler, Stebleva Iya Vasilevna, Sale Mixail Aleksandrovich, Eyji Mano, Arat Rashit Rahmati, Magda Salah Maxluf, Pave- De- Kurteyl, Tekjan Munavvar, Ramiz Asker, Stil Flora Anna, Bak'e- Gramon Jan Lui, Stori Charlz Ambrouz, Shafiqa Yorqin, Henri Beverij va boshqalar Bobur hayoti va ijodini o'rganishga o'zlarining sezilarli hissasini qo'shishgan. O'zbek adabiyotshunosligida esa Bobur shaxsiyati va ijodiyotini tilshunoslik, tarix, ijtimoiy soha va boshqa yo'nalishlarda P. Shamsiyev, G'.Murodov,

R.Zohidov, S.Hasanov, L. Qayumov, V. Rahmonov, V.Zohidov, B.Valixo'jayev, A.Qayumov, V. Abdullayev, O.Husanboyev, Sh. Bobojonova, H. Hasanov, S.Azimjonova va boshqa olimlar samarali izlanishlar olib borgan.

Bundan tashqari, A. Ibrohimov, H.Sulaymonov, P.Qodirov, S.Rafiddinov, Y.Karimova, Sh.Rustamxo'jayev, T.Xo'jayev, D.Adilova, Z.Jo'raboyeva, D.Salohiy, Sh.Hayitov, Q.Ergashev, G.Xalliyeva, B.Rajabova, B.Maqsudov, N.Pazlitdinova, M.Asadov, Y.Nasirdinova, O.Jo'raboyev, I.Haqqul, D.Zohidova, E.Hazratqulova, N.Uluqov, E.Umarov, I.Boltaboyeva, Sh.Bobojonova, N.Muhammadiyeva, D.Jumaniyozova, D.Xoshimova, S.Bozorova, V.Qodirov, D. Yusupova, H. Jo'rayev, X. Bekmirzayeva, X.Sulton, H.Qudratillayev, M.H.Yorqin, I.Safarbuyayeva, A.A'zam, S.Jalilov, S.Olim, Z. Xolmanova, F.Musurmonqulov, A.Asallayev, D.Xoshimova, I.Qodirova, T.Saydaliyev, B.To'xliyev, I.Adizova, N.Oxunov, Sh.Nishonov, N.Rasulzoda, S.Jamolov, G'.Salomov, S.Hasanov, H.Boltaboyev, X.Nazarova, N.Otajonov, L.Xodjayeva, S.Shukrullayeva, F.Salimova, N.Jiyanova, M.Sobirov, R.Karimov, T.Yuldashev, K.Mullaxo'jayeva, M.Abdullayeva, I.Sulaymonov, I.Kamolov, O. Bo'riyev, Z.Teshaboyeva, X. Nazarova, Z.Ro'ziyeva, I. Sulaymonov, D. Muhammadiyeva, M. Sharaxmetova, H. Ne'matova, Qamchibek Kenja, Z. Mashrabov, N. Otajonov, A.Madraimov, kabi olimlar ham Bobur asarlari va ularni o'qitish metodikasi, uslubi, adabiy-tanqidiy qarashlari, boshqa tillarga tarjimalari kabi masalalar o'rganilgan.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Bobur ijodi o'zining boy lirikasi bilan o'zbek va turkiy adabiy merosida alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Bobur lirik asarlarida fasllar (bahor, yoz, kuz, qish) tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lmagan holda, inson ruhiy holati, sevgisi va ichki kechinmalari bilan uyg'unlashtirilgan. Shu bois, fasl nomlarini tahlil qilish, ularning badiiy talqini va ma'nosini aniqlash ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Adabiyotlar tahlilida asosiy manba sifatida "Boburnoma" va uning devonlariga murojaat qilinadi. "Boburnoma" — tarixiy-adabiy fenomen. Boburnoma" XV–XVI asr turkiy adabiyotining yirik yodgorligidir. U tarixiy manba, geografik risola, etnografik tadqiqot, adabiy memuar, psixologik avtobiografik xususiyatlarini birlashtiradi. Asar nasrda yaratilgan bo'lsa-da, unda badiiylik, obrazlilik, lirizm, falsafiy mushohadalar kuchli. "Boburnoma" temuriylar tarixini, Movarounnahr siyosiy jarayonlarini va Boburning ichki dunyosini eng ishonchli manbalar sifatida ochib beradi. "Boburnoma" eski o'zbek tili va adabiyotining qimmatli yodgorligidir. XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi yaratilgan nasr namunasi "Boburnoma" o'zbek adabiyoti va ilmining ulug' namoyondasi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va hayotini yorituvchi birdan- bir ishonarli, birinchi manbadir [1].

Mumtoz adabiyotda komillik mezonlariga adolat, vafodorlik, sabr, poklik, aql va hikmat, kamtarlik, saxovat, haqgo'ylik va shu kabi ma'naviy sifatlarni kiritish mumkin. Ayniqsa, ishq- Sharq she'riyatining azaliy va abadiy mavzusi [2] ekanligini hisobga olganda, undagi ayrim ramzlar, tushunchalar haqida fikr yuritish lozim, deb topdik. Yor tasvirida kamolot, go'zallik, fazilat mujassam bo'ladi. Oshiqlik esa insonning ruhiy yo'li, sinovi, poklanish jarayonidir.

Mumtoz adabiyotning estetik tizimi va badiiy uslubi haqida soʻz yuritganda undagi janrlar mohiyatiga diqqat qaratiladi. Mumtoz adabiyot shaklan nihoyatda murakkab: gʻazal, qasida, ruboiy, masnaviy, qitʼa, fard, qasida, musaddas, mustazod va boshqalar. Bu janrlar har biri oʻzining qatʼiy badiiy qonuniyatlariga ega: Gʻazal — (arabcha: ayollarga xushomad qilish, ayollarni madh qilish) Sharq mumtoz adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr, 3-4 baytdan 19baytgacha boʻlgan hajmda yozilib, a-a, b-a, d-a, g-a... tarzida qofiyalanuvchi sheʼr. Garchi manbalarda gʻazal hajmi 19 baytgacha deb koʻrsatilsa ham, adabiyot tarixida 23 baytgacha boʻlgan gʻazallar ham uchraydi[3]. Masnaviy, qasida, ruboiy va boshqa janrlar taʼrifini lugʻatda koʻrish mumkin. Lekin ularning asosiy janr xususiyatini qayd etish lozim: Masalan, masnaviy, asosan, falsafiy va epik voqealarni aks ettirsa, qasida madh, taʼrifni, ruboiy esa aruzning muayyan bahrlarida yozilishi, oʻzida falsafiy xulosalarni aks ettirishi bilan alohida ahamiyatga egadir. Ruboiy va gʻazal janrining oʻzaro farqini turlicha taqqoslash mumkin. Biroq quyidagi talqinni keltirishni joiz deb topdik: “Gʻazalda lirik qahramon oʻz ichki kechinmalari, qalb tugʻyonlari bilan ovvoradek, “oʻz yogʻiga oʻzi qovurilayotgandek” tasavvur paydo boʻladi. Ruboiyda esa shoirning lirik qahramoni koʻpincha ikkinchi shaxsga murojaat qilishi, didaktika kuchliroq tus olib, koʻzda tutilgan maqsad gʻazal janridagiga qaraganda ochiqroq anglashilayotgandek tasavvur qoldiradi” [4]. Shu manbalarni tahlil qilish orqali Bobur lirikasidagi fasl nomlari nafaqat tabiat hodisasi nomi sifatida, balki tuygʻular, ramzlar – badiiy maqsad sifatida aks ettirilgani aniqlandi. Tahlil jarayonida ijodkor devonlari, ilmiy tadqiqotlar, badiiy tahlilga oid tadqiqotlardan foydalanildi.

### **Natija va muhokama**

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi va tarixchi, balki nozik didli lirik shoir sifatida ham turkiy adabiyot tarixida alohida oʻrin tutadi. Uning sheʼriyati inson qalbining eng nozik torlarini chertadigan, tabiat manzaralari orqali inson ruhiyatini aks ettiradigan chuqur poetik olamdirdir. “Inson – tabiat farzandi. Tabiat – inson uchun ona. Onaning, ona – tabiatning inʼom-u ehsonlari mislsiz, beminnat” [5].

Bobur lirikasida ham tabiat, ayniqsa, fasllar tasviri alohida poetik qatlamni tashkil etadi. Bahor, yoz, kuz va qish shoir sheʼrlarida oddiy tabiat hodisasi emas, balki ruhiy holat, hayot bosqichi, muhabbat ifodasi, ayriliq iztirobi, vatan sogʻinchi, falsafiy mushohada ramziga aylanadi. Adabiyotshunos A. Sharopov yozganidek: “Tabiat hodisalari oʻzicha emas, balki oʻzga maʼnoda berilsa, unga inson ruhi, xarakteri singdirilsa, u ramzga aylanadi. Albatta, bunda ramz badiiylkdan mahrum boʻlib qolmasligi kerak”[6]. Mazkur maqolaning maqsadi — Bobur lirikasida fasl mavzusining poetik mohiyatini, ramziy maʼnosini va badiiy qimmatini ilmiy asosda yoritishdir. Bobur Alisher Navoiy anʼanalarini davom ettirgan holda tabiat tasvirini inson ruhiyati bilan uygʻunlikda tasvirlaydi. Biroq Bobur tabiatni koʻproq koʻrgan, kechirgan, his qilgan shoir sifatida tasvirlaydi. Uning sheʼrlaridagi tabiat sunʼiy emas, real va jonli. Shoir umrining katta qismi safarda, janglarda, ayriliqlarda oʻtganligi sababli, tabiat manzaralari unda ayniqsa kuchli ruhiy aks sado beradi.

Bobur lirikasida bahor — eng koʻp tasvirlangan fasl. Bahor muhabbat fasli, umid fasli, yoshlik fasli, goʻzallik timsoli sifatida namoyon boʻladi. Misralarda bahor shunchaki fasl emas, balki koʻngil uygʻonishining timsolidir. Bahor Boburda quyidagi ramziy

ma'nolarni anglatadi: a) tabiat tasviri; b) ko'ngil iztirobi; c) muhabbat uyg'onishi; d) yashillik; e) umid; f) ruhiy shodlik. Bahor tasviri orqali shoir ko'pincha sevgilisini eslaydi, go'zallikni tasvirlaydi, yoshlik shavqini ifodalaydi:

Bahor faslidur- u may havosi boshimda,

Ayoq tut menga, soqiyki, xush havoyedur [7].

Bahor ayyomidur dog'i, yigitlikning avonidur,

Ketur soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.

Gahi sahro uzori lola shaklidan erur gulgun,

Gahi sahni chaman gul chehrasidan arg'uvonidur.

Yana sahni chaman bo'ldi munaqqash rangi gullardin,

Magarkim sun'ing naqqoshig'a rang imtihonidur.

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,

Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidur.

Na yerda bo'lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,

G'aribingga tarahhum aylagilkim, anda jonidur [8].

Boburda yoz fasli ko'proq ishq harorati, ruhiy jo'shqinlik, hayotiy harakat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Yoz tasvirida: quyosh — ishq alangasi; issiq — qalb harorati; maysalar — hayot davomiyligi ramzi sifatida qo'llanadi. Yoz fasli ko'pincha shoirning muhabbatga to'la davrlarini ifodalaydi:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,

She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,

Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa, bordur davlati.

Ishq dardini chekib, har kimki topsa vasli yor,

Ul zamon bo'lg'ay unut yuz yilg'i hijron shiddati.

Do'stlarning subatida ne xush o'lg'ay bahsi she'r,

To bilingay har kishining tab'i birla holati.

Gar bu uch ishni muvofiq topsang ul uch vaqt ila,

Mundin ortuq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati [9].

Kuz Bobur lirikasida alohida falsafiy ma'noga ega. Ushbu fasl g'am va tafakkur paytidir. Kuz: ayriliq, sog'inch, hayotning o'tkinchiligi, ruhiy tushkunlik ramzidir. Bu yerda

kuz tabiat emas, balki shoir qalbining holatidir. Kuz tasviri ko‘pincha Boburning vatandan uzoqda, g‘urbatda kechirgan iztiroblari bilan bog‘liq:

Xazon yafrog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,  
Ko‘rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrayi zardim.  
Sen, ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,  
Ayog‘ingg‘a tushub, bargi xazondek yolbordim.  
Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol,  
Men archi daxr bog‘idin xazon yafrog‘idek bordim.  
Xazondek qon yoshim, sorig‘ yuzumdin el tanaffurda,  
Bahar range, bihamdillah, ulusdin o‘zni qutqordim.

Bobur she‘riyatida qish — sokinlik, sukunat, yolg‘izlik ramzi. Qish tasviri orqali shoir g‘urbat azobini, do‘stlardan ayriliqni, ruhiy sovuqlikni ifodalaydi. Qish ko‘pincha shoirning eng og‘ir ruhiy holatlarini aks ettiradi:

Qish bo‘ldi- yu, bo‘ldi borcha tomu tosh qor,  
Jam‘iyati bor kishiga bordur xush qor.  
Bu qishda yomon yo‘lu parishon holim,  
Yo Rab, meni yaxshilig‘ sori boshqor!

Bobur fasllarni inson ruhiyati bilan uyg‘unlikda tasvirlaydi. Bahor - umid, muhabbat; yoz - ishq jo‘shqinligi; kuz - g‘am, tafakkur vaqti; qish - yolg‘izlik, iztirob fasli sifatida baholanadi. Bu uyg‘unlik Bobur lirikasining eng yuksak poetik xususiyatidir. Bobur ko‘plab she‘rlarida fasllarni eslar ekan, aslida Andijon, Farg‘ona, Kobul tabiatini sog‘inadi. Fasl tasviri orqali shoir vatanni eslaydi: bahor tasviri — bolalik xotirasi, kuz tasviri — vatandan uzoqlik iztirobi.

Bobur fasllarni hayot bosqichlariga qiyoslaydi:

Bahor	Yoshlik
Yoz	Kamolot
Kuz	Qarilik
Qish	O‘limga yaqinlik

Bu falsafiy yondashuv Bobur lirikasining chuqur qatlamini tashkil etadi. Bobur fasllarni tasvirlashda tashbeh, istiora, ramz, jonlantirish kabi badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Bobur lirikasida fasl tasviri she‘rga jonlilik beradi, hissiy ta’sirni kuchaytiradi, obrazlarni boyitadi, o‘quvchini ruhiy holatga olib kiradi. Bobur lirikasida fasl tasviri oddiy tabiat manzarasi emas, balki chuqur poetik, ramziy va falsafiy ma’noga ega badiiy qatlamdir. Fasllar orqali shoir o‘z ruhiy kechinmalarini, muhabbat iztiroblarini, vatan sog‘inchini, hayot haqidagi falsafiy qarashlarini mahorat bilan ifodalaydi. Fasl tasviri Bobur lirikasining estetik kuchini oshiruvchi asosiy poetik vositalardan biridir. Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasini fasllar tasviri orqali o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, shoir tabiat manzaralarini shunchaki dekorativ unsur sifatida emas, balki inson ruhiyati, hayot falsafasi va shaxsiy kechinmalarining badiiy ifodasi sifatida talqin etadi. Bobur she‘riyatida bahor, yoz, kuz va qish obrazlari tabiiy holat emas, balki ko‘ngil holatining ramzi, shoir qalbining

aks-sadosi, davr va taqdir bilan bog‘liq ichki kechinmalarning poetik ifodasidir. Bu jihat Bobur lirikasining chuqur psixologik va falsafiy qatlamga ega ekanini ko‘rsatadi.

Bahor tasviri orqali shoir muhabbatni, umidni, yoshlik shavqini, go‘zallikni ifodalasa, yoz orqali ishqning harorati, hayotiy jo‘shqinlik va qalbdagi quvvatni tasvirlaydi. Kuz fasli esa Bobur lirikasida ayniqsa alohida ma‘no kasb etadi: u sog‘inch, ayriliq, tafakkur, o‘tkinchilik ramzidir. Qish esa ruhiy sovuqlik, yolg‘izlik, g‘urbat, iztirob timsoliga aylanadi. Demak, fasllar Bobur she‘riyatida inson hayotining bosqichlari, qalb holatlarining almashinuvi, ruhiy kechinmalarning davriyligi bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Bobur fasl tasvirini o‘zining shaxsiy taqdiri bilan uzviy bog‘laydi. Uning umr yo‘li doimiy safar, kurash, g‘urbat va ayriliqlardan iborat bo‘lganligi sababli, tabiat manzaralari shoir qalbidagi kuchli aks-sado beradi. Ayniqsa, fasllarni tasvirlash jarayonida shoir vatanni eslaydi, bolalik xotiralari, Farg‘ona va Andijon manzaralari, Kobul tabiati bilan bog‘liq tuyg‘ularini badiiy ifodalaydi. Shu bois Bobur lirikasida fasl tasviri ko‘pincha vatan sog‘inchi bilan qorishib ketadi. Bahor tasviri bolalik va ona yurtni eslatgan bo‘lsa, kuz tasviri vatandan uzoqlik iztirobini yanada kuchaytiradi. Bobur fasllarni tasvirlashda mumtoz she‘riyatning boy badiiy vositalaridan — tashbeh, isti‘ora, ramz, jonlantirish kabi san‘atkorlik usullaridan mahorat bilan foydalanadi. Barglarning to‘kilishi ko‘ngil iztirobi, shamol qalb bezovtaligi, gullar muhabbat, sovuq esa ruhiy iztirob sifatida talqin qilinadi. Bu esa shoirning tasviriy mahoratini, tabiat bilan inson ruhiyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni chuqur his etganini ko‘rsatadi. Bobur lirikasidagi fasl tasvirini Navoiy an‘analari bilan qiyoslab ko‘rganimizda, muhim farq ko‘zga tashlanadi. Navoiyda fasllar ko‘proq tasavvufiy va ramziy ma‘no kasb etsa, Boburda ular real, jonli, hayotiy va shaxsiy kechinmalar bilan yo‘g‘rilgan. Bobur faslni ko‘radi, his qiladi va yashaydi. Shu jihatdan Bobur tabiatni tasvirlashda hayotiy realizmga yaqin turadi. Fasllar tasviri Bobur lirikasining estetik qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Tabiat manzaralari she‘rga jonlilik, tasviriylik, hissiylik bag‘ishlaydi. O‘quvchi fasllar tasviri orqali shoir qalbiga kiradi, uning ruhiy holatini his qiladi. Bu esa Bobur lirikasining ta‘sirchanligini, badiiy kuchini kuchaytiradi. Shuningdek, fasllar tasviri Bobur lirikasida vaqt va hayot falsafasini ifodalash vositasiga aylanadi. Shoir fasllar almashinuvi orqali inson umrining o‘tkinchiligi, yoshlikning tez o‘tishi, hayotning beqarorligi haqidagi mushohadalarini badiiy ifodalaydi. Bahor yoshlikni, yoz kamolotni, kuz qarilikni, qish esa hayotning so‘nggi bosqichlarini anglatadi. Bu esa Bobur she‘riyatiga chuqur falsafiy ruh bag‘ishlaydi.

### **Xulosa**

Bobur lirikasida fasl mavzusi yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan poetik hodisadir. Fasllar tasviri orqali shoir tabiat, inson va hayot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mahorat bilan ochib beradi. Fasllar shoir qalbining holatini, muhabbatini, sog‘inchini, iztirobini, umidini va falsafiy mushohadalarini ifodalovchi asosiy badiiy vositaga aylanadi. Bu esa Bobur lirikasining nafaqat estetik, balki ma‘naviy-falsafiy jihatdan ham yuksak darajada ekanini ko‘rsatadi. Bobur fasllar orqali inson qalbining nozik torlarini cherta olgan, tabiatni ruhiyat bilan uyg‘unlashtira olgan, she‘riyatni jonli va ta‘sirchan qilgan buyuk lirik shoir sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Bobur lirikasida fasl tasviri nafaqat poetik unsur, balki inson ruhiy

kechinmalari, ma'naviy olam qirralari ifodasida ham muhim rol o'ynaydigan poetik vositadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qayumov A. Zahiriddin Muhammad Bobur (Shoir hayoti va ijodi to'g'risida ayrim lavhalar). Ilmiy- adabiy nashr. O'zFa, Fan, 2008. – B. 50.
2. Xo'jayev T. Bobur she'riyatining ayrim o'ziga xos xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. - 2013. - № 2. – B. 49.
3. Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademya, 2013. – B. 393.
4. Jo'rayev H. Alisher Navoiy Alisher Navoiy lirikasida voqelik va uning poetik talqinlari (O'ziga xoslik va an'anaviylik asosida). Filol. Fanlari doktori... Diss. – Toshkent: 2008. – B. 31.
5. Nabiyev F. Borchadin insonni sharif aylading / Sharq yulduzi. –Toshkent, 2008. № 5-6. – B. 178.
6. Sharopov A. Olamlar ichra olamlar. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B. 109.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Ko'zidin boshda havodur: g'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi Manzar Abdulxayr. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. – B. 12.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Ko'zidin boshda havodur: g'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi Manzar Abdulxayr. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. – B. 13.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Qaro zulfung firoqida. – Toshkent Adabiyot uchqunlari, 2019. – B. 103.

---

**O'ktamova Moxigul Xamidullo qizi**, FarDU Ingliz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, [uktamovamoxigul@gmail.com](mailto:uktamovamoxigul@gmail.com)

**Boboyeva Shohsanamxon Valisher qizi** Ingliz filologiyasi yo'nalishi 2-kurs talabasi



---

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI QISQARTMALARNING QIYOSIY TAHLILI

<https://zenodo.org/records/19840758>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qisqartmalarning kelib chiqishi va ishlatilishi chog'ishtirma tahlil qilingan. Ingliz va uzbek tillaridagi qisqartma so'zlarning turlari ham yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy, rasmiy va kundalik muloqotda ularni to'g'ri qo'llash qoidalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ingliz tilidagi qisqartma so'zlar, o'zbek tilidagi qisqartma so'zlar, qisqa shakllar, ingliz tili, o'zbek tili, yozish samaradorligi, kundalik muloqot, keng tarqalgan, standart va noformal qisqartmalar.